

## TA'LIM SAMARADORLIGINI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VOSITALARI ASOSIDA OSHIRISH

**Umarova Fotima Abduraximovna**

Ilmiy raxbar:

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Professional ta'lism metodikasi kafedrasini v.b. dotsenti, PhD.

**Xalilova K.R.**

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti  
Professional ta'lism fakulteti talabasi

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ta'lism tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish, samaradorlikga erishish uchun raqamli texnologiyalarini qanday qo'llash mumkinligi atroflicha yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** raqamli texnologiyalar, innovatsiya, virtual stend.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da kadrlar tayyorlash tizimiga va ularning saloxiyatini mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika hamda texnologiyalarining zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurishga sarflaydigan mutaxassislar darajasiga ko'tarish nazarda tutiladi. Jahonda informatika va axborot texnologiyalari jadal sur'atlar bilan rivojlanib, takomillashib borayotgan sohadir.

O'qituvchi faoliyati yangilanmasa ta'limga samardorlikka erishib bo'lmaydi. Pedagogik faoliyat tug'ma talant emas, nasldan-naslga o'tuvchi xususiya emas balki uning asosida izlanish, ijodiy mehnat yotadi. Ta'limga tarbiya jarayonidagi innovatsiyalar, ilg'or pedagogik texnologiyalar, yangiliklar, dars o'tishning interfaol

usullari o‘z-o‘zidan ta’limga kirib kelmaydi. Ma’lum doiradagi muammolarni yechish uchun yangilikni kiritishga yo‘naltirilgan harakatlar, har qanday vaziyatda muammolarni yechish uchun motivatsion tayyorgarlik Innavatsion faoliyatdir. U quyidagi asosiy hususiyatlarga ega;

- ijodiy faoliyat texnologiyasini egallash;
- egalangan bilim va ko‘nikmalarni yangi vaziyatga ko‘chira olish;
- muammolarni ajrata olish;
- ob’yektning yangi funksiyalarini ko‘ra bilish;
- muqobil yechimlar topa olish;
- o‘z-o‘zini va o‘z faoliyatini tasniflay olish bilim va ko‘nikmalari.

Shuni aytish mumkinki, bugungi kunda o‘quv-tarbiya jarayoni va uning natijalari yangi pedagogik va axborot texnologiyalarni qo‘llashdan iboratdir. Mamlakatning ertangi kuni dunyoqarashi o‘zgargan maktab o‘quvchilari va o‘qituvchilariga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Shu bois yuqoridagi yangicha fikrlash, tushunchasiga ega, bozor sharoitlarida muvaffaqiyatli ish yuritadigan yuksak malakali, chuqur bilimli yoshlarni tarbiyalash-davr talabidir. Ayni paytda ta’lim muassasalarini kompyuterlashtirish, yangi zamonaviy darsliklarni yaratish, ta’lim jarayonoga mos ravishda axborot texnologiyalarni qo‘llash dolzarb vazifadir. Xalqaro ta’lim tizimining keyingi 20 yil ichidagi taraqqiyoti yangi tushunchalar, interfaol dars usullari, informatsion-kommunikatsion texnologiyalar (IKT) ni maktabga tezkorlik bilan olib kirishni taqazo etmoqda. Informatika xonasi va uning operatoridan maktabning barcha soha va fan o‘qituvchi hamda hodimlari foydalanishi mumkin. IKTni maktabga kirib kelishi turli fan to‘garaklarini tashkil etish muammolarini xal qilishga olib keladi. Shuningdek, yangi texnologiyaning joriy etilishi, bizningcha maktabda qo‘srimcha tashkiliy ishlar yuzaga kelishini ta’minlaydi. IKT bilan jiddiy shug‘ullanuvchi javobgar shaxs bo‘lishi kerak. Jahon tajribalaridan IKTning afzalligi tufayli yuqori ko‘rsatkichlarga erishilmoqda.

Jumladan: AQSH va Angliyalarda IKT bo‘yicha maktabda maxsus ish menenjer, Ukrainada maktab raxbarlari, ota-onalar va homiyalar bo‘yicha jamoatchilik kengashi shug‘ullanadilar. Ular o‘quvchilarni talabidan kelib chiqib o‘qituvchilarni qayta tayyorlash uchun maxsus mutaxassislarni yollab maktab o‘qituvchisini malakasini oshiradi. Shuningdek, IKT yordamida fanlardan o‘zlashtirishlar darjasи Singapurda 14%ga, AQSHda 25%ga Fillandiya va Buyuk-Britaniyada ham ayniqsa, boshlang‘ich sinflarda katta samara bermoqda. Bu interfaol usullarni qo‘llashda keng imkoniyatlar yaratadi. Yuqori malakali mutaxassislarga ega bo‘lgan ta’lim muassasalarida muammolar kam, lekin kompyuter, mikrokalkulyatorlardan ham foydalanmaydigan maktablarning ahvoli, u yerdagi muammolar har bir mutaxassisni, ota-onalar, homiyalar, xududiy xokimliklarni o‘ylantirmayotganligi achinarlidir. Bugungi kunda ta’limning barcha jabhasida faoliyat olib borayotgan pedagog hodimlarning muammosi yangi pedagogik izlanishlar, texnika va texnologiyalarini ta’limda qo‘llashga qaratilmog‘i lozimdir.

O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchi kadrlarning ma’naviy qiyofasiga, aqliy salohiyatiga hamda kasbiy mahoratiga nisbatan alohida mas’uliyatlar yuklangan. Chunonchi, bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov «Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch» asarida o‘qituvchi mehnatini baholab shunday deydi: «Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda xalqimizning ertangi kuni qanday bo‘lishi farzandlarimizning bugun qanday ta’lim va tarbiya olishiga bog‘liq. Ota-onalarimiz qatori biz uchun eng yaqin bo‘lgan yana bir buyuk zod – o‘qituvchi va murabbiylarning oliyjanob mehnatini hurmat bilan tilga olamiz. Biz yurtimizda yangi avlod, yangi tafakkur sohiblarini tarbiyalashdek mas’uliyatla vazifani ado etishda birinchi galda Anna shu mashaqqatli kasb egalariga suyanamiz va tayanamiz, ertaga o‘rnimizga keladigan yoshlarning ma’naviy dunyosini shakllantirishda ularning xizmati naqadar beqiyos ekanini yaxshi tasavvur qilamiz»<sup>13</sup>. Demak, bugungi kun o‘qituvchisi o‘z ustida tinimsiz ishlaydigan,

1. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. Т- Ўзбекистон-2008. 148-бет.

har tomonlama keng fikrlaydigan, ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini samarali qo‘llay oladigan ijodkor shaxsga, yoshlarning yuragiga chuqur kirib boradigan yuksak fazilatlar egasiga aylanishini hayotning o‘zi taqozo etmoqda.

Ta’lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish, ta’limda yuqori samaradorlikka erishish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Hozirgi kunda ta’lim jarayonini texnik vositalarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Maktablarda, lisey va kollejlarda, oliy ta’limda axborot texnologiyalarini qo‘llash orqali dars o‘tish o‘quvchilarga berilayotgan axborotni tez va oson etib borishini, ularni tushunarli va xotirada yaxshi saqlanishining asosi bo‘ladi.

Bundan tashqari oliy ta’lim tizimida telekonferensiyalarni tashkil qilinganligi ta’lim jarayonining yutuqlaridan biridir. Bu orqali talabalar fikr almashishlari, ekin fikrlash va o‘z fikrini to‘g‘ri va aniq etkazish qobiliyatiga ega bo‘ladilar. Internat tizimlari orqali jahonning boshqa mamlakatlarida ro‘y berayotgan voqeа-hodisalar, tadbirlar, ta’lim jarayonining yangiliklari va yutuqlari haqida ma’lumotlarga ega bo‘ladilar.

Demak, axborot texnologiyalari – talabalarning bilimlarini rivojlantiradigan, ularning texnika va ijtimoiy jarayonlarni boshqarish bo‘yicha imkoniyatlarini kengaytiradigan, ma’lumotlarni tashkil etish, ishlab chiqish, tiklash, uzatish usullari va texnika vositalari bo‘lib xizmat qilar ekan. Biz talabalar undan to‘g‘ri va samarali foydalansak, ta’lim jarayonida yuqori samaradorlikka erishish mumkin.

## **ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ: (REFERENCES)**

6. ХА Умаров, ЗА Умарова / "[Использование электронно-образовательных ресурсов в целях создания образовательной экосистемы](#)". Перспективные информационные технологии / Перспективные информационные технологии (ПИТ 2018) 2018

7. XA Умаров / Развитие профессиональных компетенций будущих специалистов на основе академической мобильности / Вопросы гуманитарных наук 2014
8. Zakhro Umarova / Modern and Innovative Approaches to the Organization of Students' Self-Education in Higher Educational Institutions / Journal La Edusci 2020/12/12
9. Zakhro Umarova / Modern and Innovative Approaches to the Organization of Students' Self-Education in Higher Educational Institutions / Journal La Edusci 2020/12/12
10. Умарова Ф.А., Умарова З.А., Умаров Х.А. "Scientific and practical bases of creation and use of electronic educational resources in educational process." European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol.7 №. 12,2019. ISSN 2056-5852